

GLOBAL YASHIL IQTISODIYOT VA UNING O'ZBEKISTONDAGI O'RNI

Omonova Mubinaxon, University of Business and Science

Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) yo'nalishi talabasi,

Ilmiy rahbar: Ikrom Kenjayev, University of Bussines and Science

"Yashil iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti, PhD

ikromk@mail.ru

+998902605794

Annotatsiya: Ushbu maqolada global yashil iqtisodiyot tushunchasi, uning asosiy tamoyillari va rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Yashil iqtisodiyotning atrof-muhitni muhofaza qilish, iqtisodiy barqarorlik va resurslardan samarali foydalanish bilan bog'liq jihatlari yoritiladi. Shuningdek, maqolada O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni, amalga oshirilayotgan islohotlar va xalqaro tajribalar bilan solishtirish keltirilgan. Iqlim o'zgarishlari va ekologik muammolarga qarshi kurashish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda suv resurslarini tejash bo'yicha mamlakatning strategik yo'nalishlari ko'rib chiqiladi. Yashil iqtisodiyotga o'tishning istiqbollari va O'zbekiston uchun ahamiyati ilmiy asoslangan holda tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, qayta tiklanuvchi energiya, ekologik muvozanat, iqlim o'zgarishlari.

I. KIRISH

Biz yashab turgan zamonaviy dunyoda ekologik muammolar va iqlim o'zgarishlari insoniyat oldidagi eng dolzarb muammolar qatoridan o'rinnoldi. Dastlab tadbiq etilgan an'anaviy iqtisodiy modellar o'ziga xos kamchiliklarga ega edi. Ushbu modellardan foydalanish vaqtida ko'plab iqtisodiy tarmoqlar tabiat resurslarini cheksiz emasligini hisobga olishmadi, natijada yangi va barqaror iqtisodiy modelga bo'lgan talab yuzaga keldi.

1980-yillarga kelib atrof-muhitning himoyasi va barqaror rivojlanish konsepsiyalari muhim masalalar sifatida dunyo miqyosida e'tirof etildi. Ushbu davrdan boshlab "Global yashil iqtisodiyot" modeli vujudga kelishni boshladi va 1990-yillarga kelib to'liq o'z shaklini topdi. Xususan, 1992-yilda Rio-de-Janeyroda o'tkazilgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Atrof-muhit va rivojlanish" bo'yicha konferensiyasida global yashil iqtisodiyotning tamoyillari yanada aniq belgilandi. Shu sababli, so'ngi bir necha o'n yillikda global miqyosda yashil iqtisodiyot tushunchasi rivojlanmoqda. Yashil iqtisodiyot faqat iqtisodiy o'sishga emas, balki ekologik barqarorlik va tabiiy resurslardan samarali foydalanishga ham qaratilgan. O'zbekiston ham ushbu tendensiyadan chetda qolmay, yashil iqtisodiyot tamoyillarini o'z iqtisodiy tizimiga joriy etishga harakat qilmoqda. Ushbu maqolada global yashil iqtisodiyotning mohiyati va uning O'zbekistondagi rivojlanish istiqbollari tahlil qilinadi.[7]

II. ADABIYOTLAR TAHLILI

Yashil iqtisodiyot bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ularning aksariyati ekologik muvozanatni saqlash, barqaror iqtisodiy rivojlanish va tabiiy resurslardan samarali foydalanish masalalarini o'rganishga qaratilgan. BMTning Atrof-muhit Dasturi (UNEP) yashil iqtisodiyotning asosiy tamoyillari haqida

hisobotlar chop etgan bo‘lib, unda barqaror rivojlanish, ekologik texnologiyalar va yashil moliyalashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Jahon bankining 2023-yilgi hisobotida yashil iqtisodiyotning iqtisodiy o’sishga ta’siri, uglerod chiqindilarini kamaytirish strategiyalari va qayta tiklanuvchi energiya manbalarining roliga urg‘u berilgan. Xitoy va Yevropa Ittifoqi davlatlari yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha muhim tajribaga ega bo‘lib, ular ekologik innovatsiyalar va yashil texnologiyalarni keng joriy qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayoni bo‘yicha rasmiy strategiyalar ishlab chiqilgan. Jumladan, 2019-yilda qabul qilingan “Qayta tiklanuvchi energiya manbalari to‘g‘risidagi qonun” va 2024-yilgi Prezident qarorlari yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, mamlakatdagi akademik tadqiqotlar, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining milliy axborotnomalari yashil iqtisodiyot tamoyillarining ahamiyatini ta’kidlaydi.[3]

III. NATIJALAR

Ushbu maqolada yashil iqtisodiyotning rivojlanishi va uning O‘zbekistondagi o‘rni o‘rganildi. Tadqiqot sifatli (qualitative) va miqdoriy (quantitative) metodlardan foydalangan holda olib borildi. Jumladan: Rasmiy hisobotlar, xalqaro tashkilotlarning chop etgan ma’lumotlari, ilmiy maqolalar va hukumat hujjatlari tahlil qilindi. O‘zbekistondagi yashil iqtisodiyot bo‘yicha so‘nggi ma’lumotlar, Jahon banki va BMTning hisobotlari asosida umumlashtirildi. O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotga o‘tish tajribasi Yevropa Ittifoqi va Xitoy kabi davlatlarning tajribasi bilan taqqoslandi. Ma’lumotlar to‘plash jarayonida tahliliy yondashuv qo’llanildi va mavjud strategiyalar, siyosat yo‘nalishlari, iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari o‘rganildi.

Global yashil iqtisodiyot (green economy) va uning O‘zbekistondagi o‘rni haqida gapirganda, bu soha dunyo bo‘ylab o‘zgarayotgan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik sharoitlarga moslashishga intilayotgan iqtisodiy modelni ifodalaydi. Yashil iqtisodiyot tabiiy resurslarni samarali va barqaror tarzda boshqarish, karbon chiqindilarini kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta’minlashni maqsad qiladi.

Global yashil iqtisodiyotda qo‘yidagi tendensiyalar mavjud:

Barqaror energiya: Dunyo bo‘ylab qayta tiklanuvchi energiya manbalariga (quyosh, shamol, gidroenergiya, geotermal energiya) sarmoya kiritilmoqda. Bu energiya manbalarining ulushi oshib boradi, va ular iqtisodiyotni tabiiy gaz va neft kabi an’anaviy yoqilg‘ilar bilan bog‘liq bo‘lgan qaramlikdan xalos etadi.

Kam uglerodli texnologiyalar: Kam uglerodli ishlab chiqarish va transport tizimlari global iqtisodiyotda katta o‘rin egallamoqda.

Resurslarni samarali boshqarish: Tabiiy resurslarni tejash, qayta ishslash va uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlash uchun ilg‘or texnologiyalarni joriy etish.

O‘zbekiston 2019-yilda “Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasini qabul qilgan va bu konsepsiya mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Uning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Qayta tiklanuvchi energiya: O‘zbekiston quyosh va shamol energetikasidan foydalanish imkoniyatlari borasida ulkan potensialga ega. 2021-yilda

mamlakatda qayta tiklanuvchi energiya manbalariga sarmoya kiritishni ko‘zlab ko‘plab loyihalar amalga oshirilmoqda. Masalan, Buxorodagi 100 MW quyosh energetika stansiyasi va Navoiy viloyatidagi shamol elektr stansiyasi kabi yirik loyihalar amalga oshirilgan.

2. Uglerod chiqindilarini kamaytirish: O‘zbekiston karbon izini kamaytirish uchun turli tashabbuslarni amalga oshirmoqda. Bu esa, ko‘plab sanoat tarmoqlarida ekologik toza texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishga olib kelmoqda.

3. Eko-turizmni rivojlantirish: O‘zbekiston ekologik toza turizmni rivojlantirishga ham e’tibor qaratmoqda, bu esa barqaror iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shadi.

Bu borada erishilgan natijalar:

- Sanoat sektori va qishloq xo‘jaligida ekologik xavfsizlikni ta’minlash borasida yangi qonun va normativ-huquqiy aktlar qabul qilindi.
- Qayta tiklanuvchi energiya sohasida sarmoya kiritish hamda mavjud elektr energiyasi infratuzilmasini modernizatsiya qilish jarayonlari boshlangan.
- Xalqaro hamkorlik: O‘zbekiston, Jahon banki, Yevropa Ittifoqi kabi xalqaro tashkilotlar bilan yashil iqtisodiyotga oid loyihalarni amalga oshirmoqda, shu jumladan, energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan dasturlar.

O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayoni boshlangan bo‘lsa-da, mamlakatning bu sohadagi pozitsiyasi ijobjiy tomonga o‘zgarmoqda. O‘zbekiston o‘zining tabiiy resurslarini samarali boshqarish, energiya samaradorligini oshirish va ekologik xavfsizlikni ta’minlash orqali global yashil iqtisodiyotga integratsiyalashish yo‘lida mustahkam qadamlar qo‘ymoqda.

IV. MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotning rivojlanishi uchun muhim sharoitlar mavjud. O‘zbekiston tabiiy resurslarga boy bo‘lishiga qaramay, ularni samarali boshqarish zarurati tobora ortib bormoqda. Davlat tomonidan qabul qilingan qarorlar va strategiyalar yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishga qaratilgan bo‘lsa-da, hali muayyan muammolar mavjud.

Asosiy natijalar:

Energetika sektori: O‘zbekiston hukumati qayta tiklanuvchi energiya manbalariga sarmoya kiritayotgan bo‘lsa-da, uglevodorod resurslariga qaramlik hali ham yuqori darajada.

Suv resurslari: Suv tanqisligi dolzarb muammolardan biri bo‘lib, suvni tejash texnologiyalarini kengroq joriy etish zarur.

Qishloq xo‘jaligi: O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi ekologik ta’sirni kamaytirish uchun organik dehqonchilik va suvni tejash texnologiyalarini rivojlantirishga ehtiyoj sezmoqda.

Ekologik ong va huquqiy asos: Yashil iqtisodiyot tamoyillari joriy qilinayotgan bo‘lsa-da, aholining ekologik savodxonligi va bizneslarning yashil texnologiyalarga o‘tishi uchun rag‘batlantirish tizimlari yetarli darajada rivojlanmagan.

Olingen natijalarga ko‘ra, O‘zbekiston yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishda sezilarli yutuqlarga erishgan bo‘lsa-da, bu jarayonni tezlashtirish uchun qo‘sishmcha moliyalashtirish, innovatsion texnologiyalarni kengroq tatbiq etish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish zarur.

BMT (2022) hisobotiga ko‘ra yashil iqtisodiyot – bu iqtisodiy faoliyatning ekologik xavflarini kamaytirish va atrof-muhitni buzmasdan barqaror rivojlanishni ta’minlashga qaratilgan modeldir. Bu yondashuv insonlarning farovonligini yaxshilash va ijtimoiy adolatni ta’minlash bilan birga, ekologik xavflarni va tabiatning yemirilishini sezilarli darajada kamaytirishni maqsad qiladi. BMT atrof-muhit (UNEP) yashil iqtisodiyot asosiy yo‘nalishlari:

Ekologik barqarorlik: Iqtisodiy faoliyat atrof-muhitga zarar yetkazmasligi kerak. Bu tamoyil ishlab chiqarish jarayonida ekologik xavfsizlikni ta’minlashni, chiqindilarni kamaytirishni va resurslarni tejashni o‘z ichiga oladi.

Resurslardan samarali foydalanish: Tabiiy resurslarni tejash va ularni qayta tiklash imkoniyatlarini yaratish. Yashil iqtisodiyotda energiya va xom ashyo manbalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy adolat: Yashil iqtisodiyot jamiyatning barcha qatlamlari uchun teng imkoniyatlar yaratishi kerak. Bu jamiyatda ekologik barqarorlikni saqlash bilan birga, ijtimoiy adolatni ham ta’minlashni o‘z ichiga oladi.

Yashil texnologiyalarni joriy etish: Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan (masalan, quyosh, shamol energiyasi) foydalanish, chiqindilarni qayta ishslash, ekologik toza texnologiyalarni rivojlantirish. Bu texnologiyalar nafaqat atrof-muhitni himoya qilish, balki yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratishga ham xizmat qiladi.

Barqaror iste’mol va ishlab chiqarish: Iste’mol va ishlab chiqarish jarayonlarida barqarorlikni ta’minlash, ya’ni mahsulotlarning butun hayotiy tsikli davomida atrof-muhitga ta’sirini kamaytirish.

Tabiatning iqtisodiy qiymatini tan olish: Tabiat xizmatlarining iqtisodiy qiymatini hisobga olish va ularni iqtisodiy qarorlar qabul qilish jarayoniga integratsiya qilish.


Ushbu tamoyillar yashil iqtisodiyotning asosini tashkil etadi va uni global miqyosda rivojlantirishga yordam beradi.

So‘nggi o‘n yilliklarda yashil iqtisodiyot global miqyosda jadal rivojlanib, ko‘plab davlatlarning iqtisodiy siyosatida muhim o‘rin egallay boshladi. Atrof-muhitni muhofaza qilish, barqaror rivojlanish va ekologik xavfsizlikni ta’minlash global iqtisodiy modelning ustuvor yo‘nalishlariga aylandi. Ushbu o‘zgarishlarning asosiy sababi iqlim o‘zgarishlari, tabiiy resurslarning kamayib borishi va ekologik muammolarning ortib borayotganidir.

Bugungi kunda ko‘plab davlatlar yashil iqtisodiyot tamoyillarini o‘z iqtisodiy siyosatlariga integratsiya qilmoqda. Masalan, Yevropa Ittifoqi (YI) 2019-yilda “Yashil kelishuv” (Green Deal) dasturini qabul qilib, 2050-yilgacha uglerod neytralligiga erishishni maqsad qilgan. Ushbu dastur doirasida qayta tiklanuvchi energiyaga o‘tish, chiqindilarni kamaytirish va ekologik texnologiyalarni rivojlantirishga katta mablag‘ ajratilmoqda va jarayon amalga oshirmoqda.

Xitoy ham yashil iqtisodiyotga sarmoya kiritayotgan yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi. 2020-yilda Xitoy hukumati 2060-yilgacha uglerod neytralligiga erishish rejalarini e'lon qildi va qayta tiklanuvchi energiya manbalariga sarmoyalarni oshirishga harakat qilmoqda. AQSh esa yashil energiya va uglerod chiqindilarini kamaytirish bo'yicha turli qonun va dasturlarni ishlab chiqmoqda. Sobiq prezident Jo Baydenning "Toza energiya rejasi" yashil iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan muhim qadamlardan biri sifatida muhim o'rin tutadi. BMT, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF) kabi xalqaro tashkilotlar yashil iqtisodiyot tamoyillarini targ'ib qilishga katta e'tibor qaratmoqda. Xususan, BMTning Atrof-muhit bo'yicha dasturi (UNEP) yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga oid ko'plab tashabbuslarni ilgari surmoqda. 2015-yilda qabul qilingan BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG) ham ekologik muvozanat va uglerod chiqindilarini kamaytirishga asoslangan iqtisodiyotga o'tish zaruratini ta'kidlaydi. **Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG – Sustainable Development Goals)** – bu Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 2015-yilda qabul qilingan va 2030-yilgacha erishilishi rejalashtirilgan 17 ta global maqsaddan iborat dasturdir.

Ushbu dastur amalda o'z natijalarini ko'rsatmoqda (1-rasm).



1-rasm. BMT Barqaror rivojlanish maqsadlarining amalga oshirilishi bo'yicha O'zbekistonda ijobjiy natijalar (2023)

Manba: BMT O'zbekistondagi vakolatxonasi, 2023.

Kelajakda yashil iqtisodiyotning global miqqosda rivojlanishi yanada jadallahishi kutilmoqda. Xususan, yangi texnologiyalar, ekologik innovatsiyalar va qayta tiklanuvchi energiya manbalarining rivojlanishi yashil iqtisodiyotning asosiy drayverlariga aylanadi. Davlatlar va xalqaro tashkilotlarning bиргаликдаги са'й-харакатлари натијасидаги глобал иқтисодиј тизим янада экологик барқарор ва ресурсларни саварали бoshqarishга asoslangan shaklga kelishi mumkin va bu o'z natijasini bermoqda.

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish bosqichlari. O'zbekiston tabiiy resurslarga boy mamlakat bo'lsa-da, an'anaviy iqtisodiy modelning ekologik muammolarga olib kelayotgani sababli yashil iqtisodiyotga o'tish zaruratga

aylandi. O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish bosqichlarining tahlil qilinishi [5]:

1. Yashil iqtisodiyotga o'tishning zaruriyati. O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish quyidagi omillar bilan bog'liq:

Ekologik muammolar: iqlim o'zgarishi, yerlarning degradatsiyasi, suv tanqisligi va havo ifloslanishi. Resurslarning cheklanganligi: neft, gaz va ko'mir kabi an'anaviy energiya manbalarining tugashi.

Sanoat va qishloq xo'jaligi ta'siri: sanoat chiqindilarining ortishi, suvdan samarali foydalanish masalalari.

Xalqaro majburiyatlar: O'zbekiston xalqaro ekologik kelishuvlar doirasida barqaror rivojlanishni ta'minlashga intilmoqda.

2. Rivojlanish bosqichlari:

Dastlabki bosqich (2010-2020-yillar). Bu bosqichda O'zbekiston hukumati ekologik muammolarga e'tibor qaratib, quyidagi dasturlarni ishlab chiqdi:

2017-yilda "Yashil iqtisodiyot" konsepsiyasini ishlab chiqish;

muqobil energetika manbalaridan foydalanishni kengaytirish;

2019-yilda Qayta tiklanuvchi energiya manbalari to'g'risidagi qonunni qabul qilish.

Jadal rivojlanish bosqichi (2021-2030-yillar). Ushbu davrda quyidagi ustuvor yo'nalishlar belgilangan:

- iqtisodiyotni "yashil" texnologiyalar bilan modernizatsiya qilish;
- sanoat va transport sektorida ekologik toza texnologiyalarni joriy etish;
- qayta tiklanuvchi energiya ulushini 25% ga yetkazish;
- ekologik turizmni rivojlantirish.
- Uzoq muddatli rivojlanish bosqichi (2030-yildan keyin):
- to'liq "yashil iqtisodiyot" modeliga o'tish;
- uglerod neytrallikka erishish;
- ekologik toza transport tizimini joriy etish;
- barqaror qishloq xo'jaligini rivojlantirish.

Global iqlim o'zgarishlari va O'zbekiston. Global iqlim o'zgarishlari butun dunyoga ta'sir qilayotgani kabi O'zbekistonga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Havo haroratining ko'tarilishi va suv tanqisligi qishloq xo'jaligi, ichimlik suvi ta'minoti hamda ekologik muvozanatga salbiy ta'sir qilmoqda. Xususan, Amudaryo va Sirdaryo suvi kamayib, cho'llashuv jarayoni tezlashmoqda. Bu esa o'rmonlar qisqarishiga va bioxilma-xillikning kamayishiga olib kelmoqda.

O'zbekiston ushbu muammolarni hal qilish uchun yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga e'tibor qaratmoqda. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan, ayniqsa, quyosh va shamol energiyasidan foydalanish kengaymoqda. Qishloq xo'jaligida sunvi tejaydigan texnologiyalar joriy etilmoqda. Shuningdek, cho'llashuvga qarshi daraxt ekish dasturlari amalga oshirilmoqda.

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgetining iqlim bilan bog‘liq faoliyatga ajratilgan ulushi (%): [3]

	Jami iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq ijobjiy harajatlar	Iqlim ta’sirini yumshatish bilan bog‘liq harajatlar	Iqlim o‘zgarishiga moslashish bilan bog‘liq harajatlar	Iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq salbiy harajatlar
Milliard so‘m	26 302,4	612,7	25 414,8	1 006,0
Davlat budgetida % ko‘rinishida	11,1%	0,3%	10,7%	0,4%

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgeti va xarajatlari tahlili (in-academy.uz, 2023).

1-jadvalda berilgan raqamlarni tahlil qilganimizda, O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgetining iqlim bilan bog‘liq faoliyatga ajratilgan ulushini va harajatlarni quyidagicha o‘rganish mumkin. Jami iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq ijobjiy harajatlar - 26 302,4 milliard so‘m. Bu, jami davlat budgetining 11,1% ini tashkil etadi. Demak, davlatning umumiy xarajatlarining sezilarli qismi iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq ijobjiy faoliyatlarga, ya’ni iqlim ta’sirini yumshatish va iqlim o‘zgarishiga moslashishga qaratilgan. Iqlim ta’sirini yumshatish bilan bog‘liq harajatlar - 612,7 milliard so‘m. Iqlim ta’sirini yumshatish (carbon mitigation) - ya’ni uglerod chiqindilarini kamaytirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish kabi faoliyatlarga ajratilgan mablag‘larning ulushi jami budgetning atigi 0,3% ni tashkil etadi. Bu, iqlimga qarshi kurashish uchun hali ham past darajadagi sarmoyani ko‘rsatadi, bu soha uchun ko‘proq resurslar ajratilishi mumkin. Iqlim o‘zgarishiga moslashish bilan bog‘liq harajatlar - 25 414,8 milliard so‘m. Iqlim o‘zgarishiga moslashish (climate adaptation) - bu soha, ya’ni suv ta’minoti, qishloq xo‘jaligi va hududiy infratuzilma kabi sohalarga moslashishni ta’minlashga ajratilgan mablag‘larning ulushi 10,7% ni tashkil etadi. Bu, iqlim o‘zgarishining salbiy ta’sirlaridan (qurg‘oqchilik, to‘fonlar, suv tanqisligi) himoyalanishga katta e’tibor qaratilayotganini ko‘rsatadi. Iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq salbiy harajatlar - 1 006,0 milliard so‘m. Iqlim o‘zgarishining salbiy ta’sirlariga qarshi kurashish, ya’ni iqlim o‘zgarishining zararlarini bartaraf etishga ajratilgan mablag‘lar 0,4% ni tashkil etadi. Bu ham past ko‘rsatkich bo‘lib, bu sohadagi faoliyatning ko‘payishi kerakligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashishda va iqlimga moslashishda faoliyatini davom ettirmoqda, lekin ba’zi sohalarda, masalan, iqlim ta’sirini yumshatish va salbiy ta’sirlarga qarshi kurashishda ko‘proq mablag‘ ajratilishi zarur. Bu, ayniqsa, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga sarmoyalar va karbon chiqindilarini kamaytirishning yanada samarali usullari uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

Hukumat xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda barqaror rivojlanish strategiyasini ishlab chiqmoqda. Uzoq muddatli rejalgarda ko‘ra, ekologik muvozanatni

saqlash va iqlim o'zgarishiga moslashish O'zbekiston uchun muhim ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib qoladi.

O'zbekistonning **Markaziy Osiyoda 1-o'rinni** va **MDH davlatlari bo'yicha 2-o'rinni** olishiga erishishi, mamlakatning yashil iqtisodiyot sohasidagi faoliyatini muvaffaqiyatli olib borayotganini ko'rsatadi. Bu, ayniqsa, qayta tiklanuvchi energiya, energiya samaradorligini oshirish, va iqlimga moslashish kabi sohalarda olib borilayotgan yirik investitsiya loyihalari va siyosiy tashabbuslarning samarasini bildiradi (2-jadval).

2-jadval

Yashil iqtisodiyot bo'yicha O'zbekistonning xalqaro reytingi [9]

Hudud	O'rinni
Markaziy Osiyo	1
MDH davlatlari	2
Osiyo	4
Dunyo	13

Manba: Global Green Economy Index, 2023

Yashil iqtisodiyot bo'yicha O'zbekistonning xalqaro reytingi Osiyo bo'yicha 4-o'rinni va **dunyo bo'yicha 13-o'rinni** olish orqali global miqyosda yashil iqtisodiyot bo'yicha yuksak pozitsiyaga ega bo'lishi, bu sohada erishilgan muvaffaqiyatlarni ta'kidlaydi va boshqa davlatlarga nisbatan ijobjiy ta'sir ko'rsatishini anglatadi. Bu O'zbekistonning iqlimga qarshi kurashish va barqaror rivojlanishga bo'lgan jiddiy yondashuvi va global o'zgarishlarga moslashishdagi qat'iyligini ko'rsatadi.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligida suvni tejash dolzarb masalalardan biridir. So'nggi yillarda tomchilatib sug'orish, yomg'irlatib sug'orish va lazer yordamida yer tekislash texnologiyalari keng qo'llanilmoqda. Bu usullar suv sarfini kamaytirib, hosildorlikni oshirishga yordam beradi. Shuningdek, aqli suv boshqaruvi tizimlari joriy qilinib, real vaqt rejimida suv taqsimoti nazorat qilinmoqda. Davlat tomonidan fermerlarni qo'llab-quvvatlash va innovatsion yechimlarni keng joriy etish bo'yicha turli dasturlar amalga oshirilmoqda. Ushbu texnologiyalar O'zbekistonning suv resurslaridan samarali foydalanishiga xizmat qilmoqda:

Jahon Banki hisobotiga ko'ra global iqlim o'zgarishlari O'zbekistonda yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishni jadallashtirishni talab qilmoqda. Suv resurslarining kamayishi va ekologik muammolar qishloq xo'jaligi hamda sanoat tarmoqlarida barqaror yechimlarni izlashga undaydi. Shu bois, mamlakatda suv tejovchi texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va ekologik toza ishlab chiqarish usullari keng joriy etilmoqda. Yashil iqtisodiyotga o'tish uzoq muddatli barqaror rivojlanish va ekologik muvozanatni ta'minlash uchun muhim yo'nalishdir[6].

V. XULOSA

Xulosa qilib aytganda, yashil iqtisodiyot nafaqat iqtisodiy o'sish va rivojlanishning yangi modeli, balki atrof-muhitni muhofaza qilish hamda resurslardan samarali foydalanishning muhim vositasi hisoblanadi. Global miqyosda yashil

iqtisodiyotga o'tish jarayoni jadallahshmoqda va ko'plab davlatlar ekologik barqarorlikni ta'minlash maqsadida innovatsion texnologiyalarni joriy qilmoqda. O'zbekiston ham ushbu tendensiyadan chetda qolmay, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish va ekologik siyosatni takomillashtirish yo'lida muhim qadamlarni tashlamoqda.

Mamlakatimizda yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlarini yumshatish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi. Kelajakda innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, ekologik qonunchilikni kuchaytirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish orqali O'zbekiston yashil iqtisodiyotning yetakchi mamlakatlaridan biriga aylanishi mumkin.

VI. ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдуманнопова Б. Развитие зелёной экономики: мировой опыт и возможности внедрения в Узбекистане // Modern Science and Research. – 2025. – №4 (1). – С. 872–877.
2. Ходжиев Ж., Нормуродов Х. О., Зайниддинов Н. С. Перспективы и пути развития «зелёной» экономики в Узбекистане // Central Asian Journal of Academic Research. – 2024. – 2 (10-1). – С. 56–68.
3. Министерство экономики и финансов Республики Узбекистан. Национальный информационный доклад о финансировании, повышении потенциала и передаче технологий в области изменения климата. – Ташкент: Министерство экономики и финансов, 2023. – 125 с.
4. United Nations. Progress Towards the Sustainable Development Goals // United Nations Statistics Division. – 2024. – 134 с.
5. Постановление Президента Республики Узбекистан № РQ-213. О мерах по внедрению национальной системы прозрачности при переходе к «Зелёной» экономике в Республике Узбекистан. – Ташкент, 2024.
6. Dual Citizen LLC. Global Green Economy Index 2023. – Вашингтон, 2023. – 112 с.
7. Представительство ООН в Узбекистане. Мониторинг целей устойчивого развития. – Ташкент, 2023. – 85 с.
9. Узбекистан занимает четвёртое место в Азии по внедрению водосберегающих технологий // Kun.uz – 2023. – 15 сентября.